

“Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasi professori, Eshburiyev Baxtiyar Mamatqulovichning Veterinariya profilaktikasi va davolash fakulteti 60840100- Veterinariya meditsinasi ta’lim yo’nalishi 4-bosqich talabalariga “Veterinariya akusherligi” fanidan “Bepushtlik va qisirliklar. Akusher-ginekologik dispanserlash” mavzusida tayyorlagan ochiq ma’ruza mashg’ulot darsi ishlanmasiga

TAQRIZ

“Veterinariya akusherligi” fanidan “Bepushtlik va qisirliklar. Akusher-ginekologik dispanserlash” mavzusi fan dasturi va ishchi o‘quv dasturiga mos keladi. Mavzu reja, ko‘rgazmali qurollar, tayanch iboralar va asosiy mazmunidan iborat. Mavzuning rejasi butun mazmundan kelib chiqqan holda berilgan. Mashg’ulotda foydalaniladigan ko‘rgazmali qurollar sanab o‘tilgan. Mavzuning asosiy mohiyatini belgilaydigan tayanch iboralar yozilgan. Mavzuning asosiy qismi batafsil berilgan. Bunda darslik va o‘quv qo‘llanmalardan foydalanilgan.

Ma’ruza mashg’uloti bo‘yicha taqdimot tayyorlangan bo‘lib, “Bepushtlik va qisirliklar. Akusher-ginekologik dispanserlash” mavzusi batafsil yoritilgan, hayvonlarda bepushtlik va qisirlik haqida tushuncha berish, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakillantirishga oid rasmlar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga chet el adabiyoti ham kiritilgan bo‘lib aynan ushbu mavzuga mos keladi.

Professor Eshburiyev Baxtiyar Mamatqulovichning “Veterinariya akusherlik” fanidan “Bepushtlik va qisirliklar. Akusher-ginekologik dispanserlash” mavzusidagi ochiq amaliy mashg’ulot matni hozirgi zamon innovasion ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti
laboratoriya mudiri, v.f.d., professor**



O.U.Kuldashev